O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil "20" 06

# MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI
# (arab)
# FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 230 000 - Tillar

**Ta’lim yo’nalishi:** 70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo‘yicha)

**Toshkent–2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori: __________ Mirzaxmedova X.V.

Arabshunoslik oliy maktabi boshlig‘i: __________ Bultakov I.Yu.

ARM boshlig‘i __________ Yuldasheva M.M.

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | YeCTS - Kreditlar |
|---|---|---|---|
| MNM1206 | 2025/2026 | 1,2 | 4,4 |

| Fan/modul turi | Ta’lim tili | Haftadagi dars soatlari |
|---|---|---|
| Majburiy | O‘zbek | 4,4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Mutaxassislikning nazariy masalalari (arab)** | 96 | 144 | 240 |

2.

## I. Fanning mazmuni:

**Fanning maqsadi:** magistrant mutaxassislik fan – adabiyotgshunoslik fanini nazariy masalalarini o‘zlashtirishda adabiyotshunoslik predmeti, tadqiq ob'ektlari, qonun-qoidalari va tahlil prinsiplari bilan chuqurroq tanishadi. Adabiyotshunoslik sohalari, badiiy adabiyot tabiati va mazmun-mohiyati, jamiyat hayotida tutgan o‘rni, adabiy jarayonlar almashuvi sabablari va omillari, adabiyotning tarixiy kategoriyalari va boshqa muhim masalalar to‘g‘risida qo‘nikma hosil qiladi.

**Fanning vazifasi:**

- magistrant nazariy mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini va ko‘nikmalarini o‘rganayotgan
- sharq adabiyotiga nisbatan qo‘lllay olishni bilish,

badiiy asarlarni ilmiy saviyada to‘g‘ri tahlil qilish, adabiy bosqich va yo‘nalishlarni ajrata olish, badiiy ijodga baho berish, badiiy to‘qima va real voqelikni munosabatini anglash,

- milliy adabiyotni jahon adabiyoti kesimida boshqa adabiyot bilan taqqoslab umumiylik va o‘ziga xoslik, milliy xususiyatlarini ajrata olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**Xorij tajribasiga muvofiqliligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi **Qatar University** (QS 121, THE 220) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://www.qu.edu.qa/siteimages/static_file/qu/colleges/cas/documents/studyplan/%D8%A7%D9%84%D8%AE%D8%B7%D8%A9%20%D8%A7%D9%84%D8%AF%D8%B1%D8%A7%D8%B3%D9%8A%D8%A9.pdf

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Adabiyotshunoslik fan sifatida**

Adabiyotshunoslikning predmeti va vazifasi. Badiiy adabiyot adabiyotshunoslikning asosiy ob'ekti sifatida. Badiiy adabiyot genezisi. Adabiyotshunoslik sohalari, maxsus terminlar. نظريات الأدب Adabiyot nazariyasi

**2-mavzu. Adabiyot nazariyasi-adabiyotshunoslikning asosiy sohasi sifatida**

Badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlari, muammolari va masalalari, metodologiyasi va tahlil metodlari. نظريات الأدب Adabiyot nazariyasi

**3-mavzu. Adabiyot tarixi**

Adabiyot tarixi ob'ekti: milliy adabiyot, jahon adabiyoti, adiblar ijodi. Adabiyot tarixining xalq tarixi, ma'naviyati va madaniyati bilan uzviy bog'liqligi. Yozuvchi ijodiga va hayotiga, yashagan muhiti va ruhiyatining ta'siri.

**4-mavzu. Adabiy tanqidda hozirgi adabiy jarayon va ijodni o'rganuvchi soha**

Adabiy tanqidning adabiyotshunoslikning boshqa sohalaridan farqi. Adabiy asarning zamonaviy jamiyat hayoti bilan aloqasi. Adabiy tanqid janrlari. Adabiyotshunoslikning sohalari o'zaro bog'liqligi. مناهج النقد الأدبي الحديث Zamonaviy adabiy tanqidchilikning metodlari

**5-mavzu. Badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli va san'at turi sifatida**

Badiiy adabiyot – so'z san'ati. Badiiy adabiyot – inson va uning atrofidagi olamni anglash vositasi sifatida, inson tafakkurining ko'rinishi. So'z san'atining boshqa san'atlardan farqi va ustunligi. Badiiy adabiyot asoslari – mifologiya va xalq og'zaki ijodi.

**6-mavzu. Badiiy adabiyot funksiyalari**

Adabiy faoliyat turlari. Badiiy adabiyotda tilning o'ziga xos iste'fodasi. Badiiy adabiyotning inson va jamiyatga nisbatan estetik, bilim orttirish, tarbiyaviy, ko'ngil ochar, kommunikativ funksiyalari. نظريات الأدب Adabiyot nazariyasi

**7-mavzu. Badiiy obraz –adabiyotshunoslikning asosiy tushunchasi**

Badiiy obraz ta'rifi, mazmun mohiyati. Badiiy obrazning ob'ektivligi (real voqelikka asoslanishi), muallif bilan aloqasi, mazmun va shaklga egaligi, yaxlitligi, umumiylik va individualligi, ta'sirchanligi va boshqa sifatlari.

**8-mavzu. Badiiy obrazning turlari va funksiyalari**

Personaj – yaxlit, asarning faol yurituvchi obrazi. Personaj obrazini syujet bilan bog'liqligi va unda tutgan o'rni. Xayvonot, nabotat, manzara, inter'er, narsalar va boshqa obrazlarni asarda tutgan o'rni, mohiyati va vazifasi.

**9-mavzu. Qo‘chma ma’noga ega adabiy obrazlar**

Ko‘chma ma’noli obrazlar – troplarni mohiyati va funksiyasi. O‘xshatish, kinoya, metafora, epitet va boshqa ko‘rinishlari. Tasnifi va ta’rifi.

**10-mavzu. Adabiy asarlarning turlari va janrlari**

Adabiy asarning mazmuni va shakli bo‘yicha tasniflash. Epik, lirik, drama asarlarni mazmun mohiyati. Janrlarni shakllanishi, ularning tarixiy kategoriya turiga kirishi. نظريات الأدب Adabiyot nazariyasi

**11-mavzu. Mazmun va shakl kategoriyalari**

Mazmun va shaklning ma’naviy xissiy jihatlari. Mazmun kategoriyalari: mavzu, muammo, g‘oya, pafos, konflikt, ularning mohiyati. Shakl kategoriyalari – asar tioli, kompozisiya, ritm, uslub, ularning mohiyati. Mazmuniy-shakliy kategoriya – syujet, obraz.

**12-mavzu. She’riy tizimlar xususiyati**

She’riy tizimlar shakllanishi. She’riy tizim xalq tili bilan bog‘liqligi. Asosiy o‘lchov birligi tushunchasi. She’riy tizimlar xilma-xilligi. Rukn, qofiya, ritm tushunchalari. She’r komponentlari. Ozod she’r.

**13-mavzu. Adabiy jarayonlar va bosqichlar**

Badiiy adabiyotda makon va vaqt kategoriyalari. Adabiy rivoj bilan bog‘liq jarayonlar. Jahon adabiyoti bosqichlari. Milliy adabiyotda davrlashtirish masalasi.

**14-mavzu. Adabiy yo‘nalish va oqimlar**

Jahon adabiyotida, jumladan Sharq adabiyotida adabiy yo‘nalish va oqimlar shakllanishi. Ulardagi umumiylik va o‘ziga xoslik. Simvolizm, romantizm, realizm oqim va yo‘nalishlari.

**15-mavzu. Zamonaviy adabiy oqim va yo‘nalishlar**

Neorealizm, modernizm, postmodernizm xususiyatlari. Milliy adabiyotning jahon adabiyoti kesimida tutgan o‘rni va rivoji. مناهج النقد الأدبي الحديث Zamonaviy adabiy tanqidchilikning metodlari

**16-mavzu. Adabiy asarning tahlil printsiplari**

Badiiy asar tahlili va talqini. Tahlil va talqin tushunchalari. Badiiy tahlil ob’ekti va predmeti.

**17-mavzu. Badiiy tahlil turlari**

Qiyosiy-tarixiy, biografik, strukturial va boshqa tahlil turlari. Ularning mohiyati va printsiplari.

**18-mavzu. Badiiy asarning structural tahlil**

Struktural nahlilning mohiyati. Matnning ichki tarkiblari unsurlari bilan ishlash, ularning o‘zaro aloqalarini anglash va badiiy yahlitlik sifatida ko‘rib chiqish.

**19-mavzu Badiiy tahlil tamoyillari**

Badiiy tahlilda tarihiylik, zamonaviylik, falsafiylik va boshqa tahlil tamoyillari. Makon va zamon kategoriyalari ularni asarda tahlil orqali namoyon bo‘lishi. مناهج النقد الأدبي الحديث Zamonaviy adabiy tanqidchilikning metodlari

**20-mavzu. Badiiy asarni adabiy tur va janrlar nuqtai nazaridan tahlili**

Epik, dramatik, lirik turga oid asarlarni tahlilida o’ziga xoslik. Asarning tahlili orqali janr xususiyati namoyon bo’lishi.

**21-mavzu. Asarni estetik reallik va badiiy butunlik sifatida tahlili**

Badiiy butunlikni tashkil qiluvchi kompozitsiya, syujet, obrazlar tizimi kabi unsurlarni tahlil qilish. Tahlilda mazmun va shakl tahlilini uyg’unligi.

**22-mavzu. Badiiy tahlil unsurlari**

Immanent va kontekstual tahlil usullari, ularning mazmun mohiyati va printsiplari. السردية العربية Arab narratalogiyasi

**23-mavzu. Adabiyot o‘qitish metodikasiga oid metod tushunchasi**

Adabiyot o‘qitish metodikasiga oid metod tushunchasi. Adabiyot o‘qitish metodlari kompleks tadqiq.

**24-mavzu. Adabiyot o‘qitishning interaktiv metodlari.**

Mavzu tanlash. O‘qish jarayon. Interaktiv usullarni qo‘lash.

## III. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulotlarda magistrantlar “Mutaxassislikning nazariy masalalari (arab)” fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg’ulotlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Mutaxassislikning nazariy masalalari (arab)” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1-mavzu: Sharq adabiyotshunosligi rivoji

2-mavzu: O‘rganayotgan Sharq adabiyotshunosligida terminlar. . تحليل النص والخطاب Matn va nutq tahlili.

3-mavzu: Adabiyotshunoslikning yordamchi tatbiqiy sohalari: tekstologiya, bibliografiya va boshqalar

4-mavzu: Adabiy tanqid janlari – taqriz, adabiy portret, annotasiya va boshqalarni mohiyati va tahlili

5-mavzu: Sharq adabiyotida ilk yozma asarlar namunalari. Ularda mif va fol'klorni o‘rni

6-mavzu: O‘rganilayotgan Sharq adabiyotida estetik, tarbiyaviy-didaktik, bilim yetkazish va boshqa funksiyalar

7-mavzu: O‘rganilayotgan Sharq adabiyotida obrazlar tizimi. Barqaror milliy obrazlar

8-mavzu: Sharq adabiyotida qahramon konsepsiyasi. مناهج النقد الأدبي الحديث Zamonaviy adabiy tanqidchilikning metodlari

9-mavzu: Sharq adabiyotida o‘ziga xos milliy tasviriy vositalar

10-mavzu: Sharq adabiyotida nasriy va nazmiy janrlar. Ularning evolyusiyasi

11-mavzu: Sharq asarlarida mazmun va shakl kategoriyalari. Ularning mutanosibligi

12-mavzu: Milliy adabiyotda she'riy janrlar.

13-mavzu: Adabiy yangilanish davrida janrlar rivoji

14-mavzu: Shahar adabiyoti rivoji va unagi an’anaviy estetik qadriyatlar o‘zgarishi

15-mavzu: Naxda davrida adabiy jarayonlar almashuvi omillari va sabablari

16-mavzu: Naxda davrida adabiy yo‘nalishlar shakllanishi. النصوص تحقيق Matnlarni tahlil qilish.

17-mavzu: Arab adabiyotida romantizm motivlari

18-mavzu: Arab adabiyotida realizm – al-vaqi’iya (Yahyo Haqqiy)

19-mavzu: Yahyo Haqqiy hikoyalarida paradoks usuli. السردية العربية Arab narratalogiyasi.

20-mavzu: Nagib Mahfuz va milliy adabiy meros

21-mavzu: Yangi roman poetikasi. النصوص تحقيق Matnlarni tahlil qilish

22-mavzu: Arab modernizm adabiyoti va uning vakillari

23-mavzu: Gamal al-G‘itoniy ijodi

24-mavzu: Nobel mukofotini olgan Nagib Mahfuz ijodi

## IV.Mustaqil ta’lim*

### IV.1. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

**“Mutaxassislikning nazariy masalalari (arab)”** fanidan mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Johiliya davrida og‘zaki va yozma adabiyot
2. Johiliya davrida adabiy estetizm
3. Arab adabiyotida adabiyotshunoslik terminlari rivoji
4. Ilk o‘rta asrlarda rivojlangan nikki janrining xususiyatlari

| | |
|---|---|
| | 5. Klassik arab adabiyotining shakllanishi<br>6. Qasida tuzilishi va xususiyatlari<br>7. Arab she'rida tabiat manzaralari obrazlarida milliylik<br>8. Arab she'riyatini rivojlanish omillari. . العربية<br>Arab she'riyati<br>9. Arab she'riyatida aruz tizimi<br>10. Xitaba janri xususiyati<br>11. Arab poetikasi – ilm al-balog'a. . التفكير البلاغي والنقدي عند العرب<br>Arab adabiyotida balog'at va tanqid.<br>12. Adabiy yangilanish davrida janrlar rivoji<br>14. Shahar adabiyoti rivoji va unagi an'anaviy estetik qadriyatlar o'zgarishi<br>15. Naxda davrida adabiy jarayonlar almashuvi omillari va sabablari.<br>Magistrant mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:<br>• o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;<br>• ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;<br>• fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;<br>• mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;<br>• kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.<br>• mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;<br>• badiiy-ijodiy ishni bajarish;<br>• kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;<br>• aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;<br>• berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;<br>amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish. |
| **3.** | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>*"Mutaxassislikning nazariy masalalari (arab)" fanini o'zlashtirish natijasida magistrant:*<br>• Adabiyotshunoslik qonuniyatlari, sohalari, atamalari, predmeti va ob'ekti haqida tasavvuri chuqurlashadi. Badiiy adabiyotni mazmun mohiyati, jamiyat hayotidagi o'rni, vazifalari bilan tanishadi. Shuningdek, badiiy adabiyotning rivolanish omillari, badiiy asar |

| | |
|---|---|
| | tabiati, tuzilishi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Adabiyot tarixiy kategoriyalari, janrlar va obrazlar modifikasiyasi, zamonaviy yo'nalish va oqimlar shakllanishi, milliy tus olishi, milliy adabiyotning jahon adabiyoti kesimida tutgan o'rni kabi masalalar bilan tanishadi.<br>• O'quv jarayonida magistrant badiiy asarning tahlil va tadqiq etish, jarayon va bosqichlarni aniqlar, janrlar transformasiyasini kuzatish, badiiy to'qima va real voqelik tasviri munosabatini ajrata bilish, badiiy ijod qaysi yo'nalish va oqimga mansub ekanligini anglash, adabiyotlarni o'zaro taqqoslab umumiylik va farqlarni ajrata olish qo'nikmalariga ega bo'ladi. |
| **4.** | **VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• jamoa bo'lib ishlash.<br>• audio-lingval metod;<br>• audiovizual metod;<br>• namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• rolli o'yinlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoaviy loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish. |
| **6.** | **VIII. ASOSIY VA QO'ShIMChA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 480 b.<br>2. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002. – 254 b.<br>3. Xodjaeva R.U, Akbarova M.X., Muxiddinova D., Saidova N. Arab adabiyoti (XIX –XX asrlar). Darslik. T.2020.<br>4. Xodjaeva R.U, Muxiddinova D., Axmedova Sh., Saidova N. Arab adabiyoti (Mag'rib mamalakatlari, Fors ko'rfazi arab mamlakatlari, Saudiya Arabistoni va Yaman adabiyoti). Darslik. T. 2021. |

| | |
|---|---|
| | **Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.<br>4. Купчанов Л.М. Введение в литературоведение. Москва, 2005.<br>5. Чернец Л.В. Введение в литературоведение. Москва "Высшая школа", 2006.<br>6. Ziyovuddinova M. Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Arab adabiyoti – V-XII asrlar). O'quv qo'llanma. T., 2021.<br>**Scopusdan maqolalar**<br>7. Dr. Dilafruz. Z.Mukhiddinova and Dr. Nargiza M.Saidova. (2023) Characteristics of the Shortest Story Genre in Modern Arabic Literature. 695-701. https://spast.org/techrep/article/view/5025<br><br>**Axborot manbalar**<br><br>1.http://www.ziyo.net<br>2.http://www.maphistory.info/<br>3.http://www.history.ru<br>4.http://academic.emporia.edu/aberjame/map/h_map/h_map.htm |
| 7. | Fanning o'quv dasturi Arabshunoslik oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "___" _____ dagi __ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "___" _____dagi ___ - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>1. Muxiddinova D.Z. – TDShU Arabshunoslik oliy maktabi dotsenti, DSc. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>1. Xodjayeva R.U. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Arabshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d.<br>2. Qodirova K.S. – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, p.f.n (turdosh OTM). |